

O'ZBEK TILIDA UNLI VA UNDOSSH TOVUSHLAR TASNIFI

Boltayeva Ozoda Alisher qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589171>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada tilshunoslik bo'limi bo'lmish fonetika va og'zaki nutqning eng kichik mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi bo'lmish nutq tovushlari shuningdek ularning ikki turga bo'linishi ya'ni unli va undosh tovushlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fonetika, nutq tovushi, unli tovush, undosh tovush, fonema.

Unli tovushlar sof ovozdan iborat bo'ladi havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi. Yakka o'zi ham, undoshlar bilan ham bo'g'in hosil qila oladi.

Fonetika- og'zaki nutqning nutq tovushlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga fonetika deyiladi. Og'zaki nutqning eng kichik mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi. Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlashdir. Talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida ma'lum to'siqqa uchrashi uchramasligiga ko'ra nutq tovushlari ikkiga bo'linadi.

- 1) Unli tovushlar.
- 2) Undosh tovushlar.

Unli tovushlar – og'iz va bo'g'iz bushlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi vokalizm (lotincha: vocalis — unli tovush) deyiladi. Unli tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Mas, hozirgi o'zbek adabiy tilida . Unli tovushlar 6 ta balsa, boshqa turkiy tillarda 8 ta, 10 ta va undan ham ortiqdir. Bu miqdor rus tilida 5 tani, fransuz tilida esa 18 tani tashkil etadi. Unli tovushlar bir necha jihatdan tasnif etiladi. Bu tasniflarning o'zbek tilidagi 6 ta unli fonema (**i, e, a, o, u, o'**) misolida ko'rib chiqish mumkin. Unlilar dastlab tilning harakati va labning holati (ishtiroki) nuqtai nazaridan turlarga ajratiladi. Tilning harakatida 2 hodisa farqlanadi: tilning yotiq (yonlama) harakati; tilning tik (vertikal) harakati. Tilning yotiq (yonlama) harakatida hosil bo'lish o'rniga ko'ra

unlilar 2 turga bo'linadi: til oldi (yoki old qator) unlilari — **i, e, a** hamda til orqa (yoki orqa qator) unlilari — **o, u, o'**. Tilning tik harakatiga ko'ra.

Unli tovushlar 3 turga bo'linadi: yuqori ko'tarilish unlilari (**i, u**), o'rta ko'tarilish unlilari (**e, o'**), quyi ko'tarilish unlilari (**a, o**).

Labning holati (ishtiroki) ga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi: lablangan unlilar (**u, o'**) va lablanmagan unlilar (**i, e, a, o**). Lablangan unlilar talaffuz qilingan vaqtda lablar faol ishtirok etadi: lab cho'chchayib, oldinga chiqadi, dumaloq shakl oladi. Lablanmagan unlilar talaffuzida lablar ishtirok etmaydi yoki lablar ishtiroki passiv bo'ladi. Tovushning hosil bo'lishida ketadigan vaqtning miqdoriga ko'ra. Unli tovushlar 2 turga bo'linadi: cho'ziq unli; qisqa unli. Cho'ziq unli davomli (cho'ziq) talaffuz etiladigan unli tovushlardir. Bunday tovushlar ko'pincha ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Bu hodisa turkey tillarning ba'zilarida, shuningdek, ayrim o'zbek shevalarida uchraydi. Mas, turkman tilida a:ch (krrnim och) va ach (eshikni och), ba:r (menda bor) va bar (ishga bor), a:t (nom, ism) va at (yilqi) va boshqa qisqa unlilar talaffuziga cho'ziq unliga nisbatan oz vaqt ketadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush bor: **b, v, g, d, j (joy so'zidagi kabi), j (j: jurnal so'zidagi kabi) z, y, k, l, m, n, ng (tong so'zidagi kabi) p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h**. Undosh tovushlar un paychalarining harakati (taranglashish) holatiga va og'iz bo'shlig'ining qayerida to'siqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo'lishi yoki ovozning shovqinidan ustunligiga qarab bir-biridan farqlanadi va shunga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: 1) hosil bo'lish (artikulyatsiya) o'rniga ko'ra; 2) hosil bo'lish (artikulyatsiya) usuliga ko'ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra; 4) tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar uch asosiy guruhga bo'linadi: 1) lab undoshlari; 2) til undoshlari; 3) bo'g'iz undoshi 1. Lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga **b, p, m, v, f** undoshlari kiradi. Bu undoshlarning hosil qilishda lablar bir-biriga jiplashadi. Ba'zilar talaffuzida esa yuqori lab pastki tishlar bilan jiplashadi.

Shunga ko'ra, lab undoshlari, o'z navbatida, 2 guruhni tashkil etadi 1) lab-lab undoshlar: **b, p, m, v, f** (kuyov, pufak so'zlarida 2) lab-tish undoshlari: **v, f** (vazifa, fursat kabi o'zlashma so'zlarda uchraydi).

2. Til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: **g, d, j** (vijdon so'zidagi kabi) **j**, (jo'ja so'zidagi kabi) **z, y, k, l, n, ng** (ong so'zidagi kabi) **r, s, t, x, ch, sh, q, g'** (jami 18 ta). Bu undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Masalan **d, j, n** undoshlari tilning old qismi bilan tish va milklar orasida; **k, g** kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan yuqori tanglay o'rtasida; **y** undoshi tilning o'rta qismi bilan yuqori tanglay o'rtasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari quyidagi 4 guruhga bo'linadi 1) til oldi undoshlari: **d, j, z, l, n, r, s, t, ch,**

2) til o'rta undoshi: **y**

3) til orqa undoshlari: **k, g, ng** (jang so'zidagi kabi)

4) chuqur til orqa undoshlari: **q, g', x.**

3. Bo'g'iz undoshi bitta **h** tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari o'rtasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar uch guruhga bo'linadi:

1) portlovchilar;

2) sirg'aluvchilar;

3) portlovchi-sirg'aluvchilar.

1. Portlovchi undoshlar hosil bo'lishda havo oqimining portlash va portlash bilan bir qatorda qisman sirg'alishi kuzatish mumkin. Maslan: **b, p** undoshlari hosil bo'lishda havo oqimi ikki lab vositasida hosil qilingan to'siqqa ma'lum zarb bilan urilib portlashidan vujudga kelsa, **ch, j** undoshlarining hosil bo'lishida havo oqimi portlash bilan bir

qatorda qisman sirg'alishni ham sezish mumkin. Shuning uchun ham portlovchi undoshlar hosil bo'lishdagi to'liq va to'la bo'lmagan portlashni e'tiborga olgan holda ularni quyidagi 2 guruhga ajratish mumkin: 1) sof portlovchilar: **b, g, d, k, t, q;**

2) qorishiq (affrikat) portlovchilar: **ch (tch), j (dj).**

2. Sirg'aluvchi undoshlar ikki nutq a'zosining o'zaro yaqinlashish va havo oqimining ana shu nutq a'zolari tor oralig'idan sirg'alib o'tish orqali hosil bo'ladi. Masalan, havo oqimining ikki lab tor oralig'idan sirg'alib o'tishi orqali **v, f** undoshlari; til bilan yuqori milk oralig'idan oqimining sirg'alib o'tishi orqali **j (jurnal) z, s, sh** undoshlari; tilning o'rta qismi va yuqori tanglay oralig'idan sirg'alib o'tishi orqali **y** undoshi; tilning orqa qismi va yuqori tanglayning orqa qismi oralig'idan sirg'alib o'tishi orqali **g', x;** bo'g'izdagi un paychalari orasidan sirg'alib o'tishi orqali **h** undoshining hosil bo'lishi shular jumlasidandir. Demak, sirg'aluvchi undoshlar tilimizda jami 10 ta bo'lib, ular quyidagilardan iborat: **v, f, j, z, y, s, x, sh, g', h.**

3. Portlovchi – sirg'aluvchi undoshlar bir vaqtning o'zida ham portlash, ham sirg'alish jarayonining ro'y berish natijasida hosil bo'ladi. Ularga **m, n, ng, l, r** kabi undoshlar kiradi. Portlovchi - sirg'aluvchi undoshlarning hosil bo'lish usullari boshqa undoshlarga nisbatan o'zgachadir. Xususan, **m** undoshining hosil bo'lishida o'pkadan chiqadigan havo oqimining bir qismi og'iz bo'shlig'ida lablarning to'sqinligiga uchrab portlaydi va havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi; **n** undoshining hosil bo'lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib yarim portlaydi hamda havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi; **ng (ng)** undoshi tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va bir qism havoning burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqishi orqali vujudga keladi. Ko'rinadiki, **m, n, ng** undoshlari talaffuz qilinganda havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi. Shunga ko'ra, bu undoshlar burun tovushlari deb ham yuritiladi. **l** undoshini hosil qilishda til uchi yuqori tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg'alib o'tishi, uning og'iz bo'shlig'idan qisman portlab, qisman sirg'alib chiqishiga sabab bo'ladi, shuning uchun **l** undoshi yon tovush deb yuritiladi. **r** undoshini hosil qilishda o'pkadan chiqadigan



havo to'liqini tilning o'ziga zarb bilan uriladi va uni titratadi. Tilning titrab turishi esa havo oqimining og'iz bo'shlig'idan portlab-sirg'alib chiqishiga olib keladi. Shu tufayli r undoshi titroq tovush deb yuritiladi.

Xulosa qilib xulosa qilishimiz mumkin: tilning pozitsiyasi unlilar tasnifiga ta'sir qiladi. Og'izda harakatlanib, tovushlarni shakllantirish uchun turli xil sharoitlar yaratadi. Ular turli xil unlilar sifatida qabul qilinadi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.



The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққийнинг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan “Bo'ysunmagan” (“The

⁵ Bakhridinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalINX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398-408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>



Unconquered”) deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398-408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357-368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.